Zafarbek Abdullaev
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
Gulchehra Rustamova
Namangan viloyat yuridik texnikumi o‘qituvchisi

TURKISTON BOSHQARUV TIZIMIDA JAMOAT XAVFSIZLIK QO‘MITASI FAOLIYATI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10935444

Annotatsiya. Ushbu maqolada Fevral inqilobidan keyin Turkiston boshqaruv tizimida joylarda Muvaqqat hukumatni qo‘llab-quvvatlash, Turkistonda boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi faoliyati bo‘yicha joylarda tartib-qoidalarni saqlash masalasida JXQ (noqonuniy saylov asosida) tuzilganligi, ularni biror normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanmagan holda noqonuniy faoliyatlari hamda ushbu faoliyatlarni aholining turmush sharoiti va yashash tarziga salbiy ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi (TBMQ), Jamoat xavfsizlik qo‘mitasi, saylov, tintuv o‘tkazish, noqonuniy xatti-harakat, konfiskatsiya.

Fevral (1917) inqilobi tufayli Rossiya imperiyasining qulashi natijasida, Muvaqqat hukumat tomonidan TBMQ va shu bilan bir paytda, uning tarkibiy qismida, joylardagi tarkibiy tuzilmasi, ma’muriy qurilmasida yangi tartib-qoidalarni o‘z ichiga olgan, “inqilobiy vazifalar” dan kelib chiqadigan jamoat xavfsizligi – jamoat tashkilotlarining ijroiya qo‘mitalari, ya’ni jamoat xavfsizlik qo‘mitalari (JXQ) tashkil topa boshladi [6]. Xususan, Turkiston boshqaruv tizimida joylarda Muvaqqat hukumatni qo‘llab-quvvatlash, Turkistonda boshqaruv Muvaqqat qo‘mitasi faoliyati bo‘yicha joylarda tartib-qoidalarni saqlash masalasida JXQ tuzildi. JXQ ijro organi bo‘lib, joylardagi boshqaruv tizimida TBMQ organi roliga da’vorgarlik qilib, barcha demokratik kuchlarni birlashtirish tashabbusini ilgari surdi. O‘z-o‘zidan bu, JXQ lariga keng miqyosdagi ijtimoiy va milliy asoslarga imkon yaratdi. Boshqaruv organi sifatida, o‘lka bo‘yicha JXQ larining huquqiy vakolatlari tan olinib, ular joylardagi ijroiya qo‘mitalarini saylash ishlariga faollik bilan kirishdilar[8]. JXQ ning tuzilishi bu amalda boshqaruv tizimining shahar, uezd, volost, qishloq va posyolkalarida Muvaqqat hukumat tomonidan tuzilgan boshqaruv tizimini o‘z ichiga olgan qo‘mitalar edi. Dastlabki JXQ 1917 yil 6 martida bo‘lib o‘tgan yig‘inda, Toshkentda tuzilib, uning tarkibi 19 kishi deb belgilangan. Ammo o‘sha Toshkent shahar JXQ ning 19 a’zosi orasida tub aholi vakillari ozchilikni tashkil qilgan. Bunday holat, Turkistonning boshqa shaharlarida ham JXQ ga saylovlarda takrorlanib, ularda ham tub aholi vakillaridan saylanganlar ozchilikni tashkil qildi [4]. Joylarda tashkil topgan JXQ lari TBMQ ga tartib-intizomni va jamoat xavfsizligini himoya qilishi, Muvaqqat hukumat tomonidan qabul qilingan barcha normativ -huquqiy hujjatlarni ijrosini nazorat qilish hamda lavozimdagi shaxslarni qonun-qoida doirasida faoliyat olib borishlari belgilangan edi. JXQ vakolatiga yana noqonuniy xatti-harakatlarga qarshi kurashish, kerak bo‘lsa, javobgarlikka tortish, har qanday tartibsizlikni oldini olish va bu yo‘lda, qurol ishlatish, hibsga olish, tintuv o‘tkazish hamda aybdorlarni sud hokimiyatiga topshirish ham kirgan. Shuningdek, JXQ ga majburiy qaror chiqarish, jamoat xavfsizligiga xavf soladigan yig‘inlar, mitinglar, s’ezdlar o‘tkazishni taqiqlash kabi keng qamrovli vakolatlar berilgan [7].

Joylarda tashkil topgan JXQ lari o‘z faoliyatlarini hech bir qonun-qoida, normativ hujjatga tayanmagan holda olib borganlar. Masalan, Jalolobod qishlog‘idagi JXQ tarkibida birorta ham mazkur qishloq vakili bo‘lmagan holda, ular o‘zboshimchalik bilan “oziq-ovqat mahsulotlarini taftish qilib... xatlayotgani, musulmonlarning uylariga, musulmon ayollar yashayotgan xonalarga (ichkari hovliga) bostirib kirishayotgani”

qayd etilgan. Shuningdek, joylardagi JXQ lari a'zolari o'z xatti-harakatlarida faqat shaxsiy manfaatlarini o'ylab ish yuritishganini qayd etib, ular qishloqlardan o'z mahsulotlarini bozorlarga sotish uchun olib kelgan "fuqarolarning g'allalarini xatlamoqdalar... Ichkilibozlik, fohishabozlik, tungi otishmalar avj olmoqda" deyilgan [4].

JXQlarining rusiyzabon a'zolari o'z sa'y-harakatlarini olib borish davomida tub aholi – musulmonlarga nisbatan zo'ravonlik qilib, faoliyatlarini o'z xohish-istaklaridan kelib chiqib amalga oshirganlar. Ularga xohlagan paytda aholi vakillarini hibsga olish, qo'shni qishloqlardan "bozorga keltirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini tortib olish bo'yicha ko'rsatmalar berish, musulmon aholi yashaydigan xonadonlarda oziq-ovqat bo'yicha tintuvlar o'tkazish, ayollar istiqomat qiladigan xonadonlarga kirib borish... qurollangan holda, to'pponcha bilan bozor bo'ylab oziq-ovqat mahsulotlarini yig'ishtirib, ularni volostdagi uylariga taxlab, u yerdan [oziq-ovqat mahsulotlarini] o'z xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlayotganlardan faqat ayrimlarigagina berish" hollarini amalga oshirib borganlar [9].

O'z-o'zidan, JXQ ning noqonuniy xatti-harakatlari mahalliy aholining noroziligiga olib kelgan. Turkiston boshqaruv tizimida, Fevral inqilobidan keyin tashkil topgan JXQ ning noqonuniy faoliyatiga nisbatan o'lka miqyosidagi mutasaddilar e'tibor qaratmagan. Ammo joylardagi JXQ tomonidan tub aholi haq-huquqlarini cheklashga nisbatan mahalliy aholi yig'inlar o'tkazib, bunga o'z munosabatini bildirgan. Masalan, Jalolobaddagi JXQ ning faoliyatida musulmon a'zolarga nisbatan nohaq cheklovlar masalasini 1917 yil 31 may kuni, Jome' masjidida muhokama qilinib, amalda bu "Andijon uezd JXQ faoliyati tufayli, bozorga un, g'alla va boshqa kundalik ehtiyojga bog'liq oziq-ovqat mahsulotlarini keltirmaslikka, qo'shni qishloqlardan g'alla va un kelmasligiga" olib kelganligi ta'kidlangan. Sobiq komissar Marmulet tomonidan 10723 so'mga xarid qilingan unni puli aholiga berilmagani, bu norozilik keltirib chiqarayotgani ham qayd etilgan. Jome' masjidida Jalolobod volosti noroziligi bo'yicha, yig'ilganlar bunday tartibsizlik, noqonuniy xatti-harakatlarga barham berish kerakligini, o'z faoliyatini faqat tor doirada, xususan JXQ dan musulmon a'zolarni chetlatib olib borish "achinarli oqibatlar bilan tugashi mumkin... shunga ishonchimiz komil bo'ldiki, komitetlarni (JXQ nazarda tutilgan Z.A.) tashkil etish va lavozimlarga saylash noto'g'ri amalga oshirilgan... bizning tajribasizligimizdan foydanilgani... ahvolimizni yanada chigallashtirib, bir necha bor o'tkazilgan saylovlar holatni yaxshilashga emas, yomonlashishiga olib keldi. Hech kim shu paytga qadar bizga erkinlik va fuqarolar teng huquqliligini tushuntirmagan, JXQ vazifasi hamda tartib-qoidalaridan xabardor etmagan" deyilgan [10].

Turkiston boshqaruv tizimidagi bunday noroziliklarga, aholi hayotidagi tushunmovchiliklarga o'sha paytdagi boshboshdoqlik, amalda tub aholi manfaatlariga bepisandlik bilan yondashuv, aholi haq-huquqlarini oyoq osti qilish, asosiy e'tiborni rus va rusiyzabon aholiga qaratilganligidan deb bilish mumkin.

Mavjud arxiv manbalari shundan dalolat beradiki, Turkiston aholisida siyosiy faollik, o'z haq-huquqini anglash, turli saylovlarda qatnashish, bundan maqsad va vazifalar hamda ularning xalqqa foyda-zarari to'g'risida yaxshi tushuntirishlar berilmagan. Masalan, o'lka bo'yicha tashkil etilgan JXQ nima, saylov tartibi, tarkibni maqsad va vazifasi mahalliy aholiga tushuntirilmagan. Aytish mumkinki, bunga o'sha Fevral inqilobidan keyin Turkistonning tub aholisi o'z haq-huquqini yaxshi anglab yetib qolishidan xavfsirash, shuningdek, mahalliy aholiga bepisandlik bilan yondashuvning bir ko'rinishi deb qarash mumkin. Bunday "xabarsizlik" holati, ayniqsa Turkistonning viloyat markazlaridan yiroqlarda, chekka qishloqlarda ko'p uchraydi. Saylovni o'tkazish bo'yicha mutasaddi rahbarlar "bir hovuch odamlarni ma'lum bir joyga yig'ib, faqatgina "ozodlik" deb qichqirib ... JXQ ni

tuzganlar. Shunday qilib, aholini tajribasizligi, shuningdek, saylov o‘tkazuvchi rahbarlarni ham tajribasizligi tufayli, bu [jamoatchilik xavfsizligi] qo‘mitaga ko‘plab mas’uliyatsiz shaxslar kirib qolgan” [10].

Turkiston boshqaruv tizimida faoliyat olib borayotgan JXQning a’zolari joylardagi tartib-intizom, saylov, bozorlardagi narx-navolar, oziq-ovqat ta’minoti va boshqalarni ham qamrab olgan. Masalan, Andijon uezdi JXQ a’zosi-komissar yordamchisi Grigorenko aholining mol-mulkiga nisbatan noqonuniy xatti-harakatidan noroziliklarga nisbatan, doimo “so‘kinishlar, xaqoratlar, hibsga olish yoki otib tashlashga oid do‘q-po‘pisalar hamda tub aholini o‘qqa tutish uchun askarlar chaqirilishi mumkinligi bilan javob bergan”. Andijon uezd JXQ a’zosi-komissar yordamchisi Grigorenko boshchiligidagi JXQ a’zolari o‘z vazifalarini bajarishda, bu sa’y-harakatlar “inqilob manfaatlarida” ekanligini ro‘kach qilib, “asosiy e’tiborni musulmon aholisiga qaratib”, noqonuniy faoliyatlariga “qonuniy tus berib”, ularning bozorga olib kelayotgan yohud bozorda sotayotgan g‘allasini, guruchini konfiskatsiya qilib, kechasi o‘zaro bo‘lishib olganlar. Shunday holatlar ham bo‘lganki, kunduzi kimdan konfiskatsiya qilgan bo‘lsalar, kechga borib yoki keyingi kuni musodara qilingan mol-mulkni yana o‘sha egasiga “ma’lum bir haq evaziga” qaytarganlar. Bundan ko‘rinib turibdiki, kunduzi o‘z g‘allasi, guruchi va boshqa mahsulotlarini bozorga sotish uchun olib kelgan dehqonlar o‘z mol-mulklaridan konfiskatsiya qilinishi asosida mahrum bo‘lib, kechasi yoki keyingi kuni o‘zlarining o‘sha mol-mulklarini yana o‘zlari “sotib olganlar”. Albatta, JXQ a’zolarining bunday xatti-harakati musulmon aholisining noroziligiga sabab bo‘lgan. Amalda bu joylardagi JXQ a’zolarini hech qanday tartib-qoidalarga, normativ-huquqiy hujjatlarga tayanmagan holda olib borgan faoliyatidan dalolat beradi. TBMQ tarkibiy tizimidagi JXQ ning bunday adolatsiz faoliyati boshboshdoqlikka qaratilib, bu aholi hayotida o‘lka boshqaruv tizimiga ishonchni yo‘qqa chiqarib borgan [11].

Aholi oziq-ovqat ta’minoti yo‘lida sa’y-harakat qilish kerak bo‘lgan joylardagi JXQ a’zolari, zimmalaridagi hokimiyat bergan vakolatlarini shaxsiy manfaatlar yo‘lida suiste’mol qila boshlaganlar. Xususan, JXQ a’zolari zimmalaridagi vakolatlaridan foydalanib, joylardagi g‘allalarni, boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini rekvizitsiya yoki konfiskatsiya qilish bilan ham shug‘ullanganlar. Masalan, 1917 yil 26 maydagi ma’lumotga ko‘ra, Andijon uezd-shahar JXQ a’zolari Haqqulobod volostida M. Mullamahmudov va B. Abduqodirboevlarga tegishli oziq-ovqat mahsulotlari va uy hayvonlarini (miqdori va aynan qanaqa oziq-ovqat mahsulotlari ekanligi manbada ko‘rsatilmagan – Z.A.) davlat hisobiga rekvizitsiya qilingan [12].

Arxiv manbalariga ko‘ra, TBMQ o‘z faoliyati doirasida to‘laqonli normativ-huquqiy hujjatlar asosida va o‘lka aholisi xohish-irodasi, ularning manfaatlariga qarata ish olib bora olmagan. Birinchidan, qisqa muddat oralig‘ida Muvaqqat hukumat normativ-hujjatlarini o‘lka shart-sharoitida qo‘llay olmagan bo‘lsa, ikkinchidan, “Fevral inqilob ruhiyati” dan kelib chiqib, Turkiston shart-sharoitiga daxldor qonun-qoidalar, qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar, yo‘riqnoma va ko‘rsatmalar qabul qilish hamda ishlab chiqish uchun yetarli boshqaruv tajribasiga ega emas edilar. Shu bilan birga TBMQ ning aksariyat a’zolari, uning tarkibidagi JXQ a’zolari rus va rusiyzabonlar bo‘lib, o‘z sa’y-harakatlari, faoliyatlari doirasida mahalliy millat vakillari haq-huquqini inkor etganlar. Xususan, JXQ joylardagi boshqaruv tizimida mahalliy aholi vakillaridan ko‘ra, ruslarni a’zo bo‘lishi yo‘lida sa’y-harakatlar qilganlar. Masalan, 1917 yil 12 iyundagi TBMQ ga Skobelev uezdidan Mulla G‘oyibnazar Mulla Muhammad Zokirov tomonidan yozilgan arizada, tub aholi vakillariga, qaerda ular ko‘pchilikni tashkil qilsa: viloyatlarda, uezdlarda, volostlarda va boshqa joylarda jamoatchilik asosida saylanish huquqi berilganini qayd etib, shu asosda Asaka, Quva,

Sigiz, Shaxrixon, Qoratepa-Cho‘pon volostlari musulmon deputatlari Quva uchastka komissarligiga toshkentlik Q.Asadillabekovni saylangani qayd etilgan. Q.Asadillabekov savodli kishi bo‘lib, rus tilini ham yaxshi biladigan kishi edi. Saylov natijasi dastlab Skobelev uezd ijroiya qo‘mitasi va keyin Farg‘ona viloyat komissariga yetkazilgan. Q.Asadillabekovga 1917 yil 16 mayda Farg‘ona viloyat komissari tomonidan Quva uchastka komissarligiga tasdiqlangani bildirilgan holda, uni mazkur lavozimda faoliyat olib borishi uchun har bir volostning roziligi so‘ralgan. Bunday talabga sabablardan biri, JXQ tavsiyasiga ko‘ra, Q.Asadillabekov saylanishidan ikki oycha avval Quva uchastka komissarligiga atigi 400 nafarga yaqin faqat ishchilar tomonidan Obuxovni saylanishiga erishilgan edi. Ammo bundan norozi bo‘lgan mahalliy millat vakillari – 200 mingdan ortiq aholi vakili sifatida Q.Asadillabekovni Quva uchastka komissarligiga saylagan edi [13].

Shuni ta’kidlash mumkinki, TBMQ tizimidagi JXQ tarkibini shakllantirish bir tomonlama, ya’ni asosiy e’tiborni ruslarga qaratib, uning a’zolarini tuzish hamda amaliy faoliyatida mahalliy millat vakillari manfaati va haq-huquqlari hisobga olinmagan.

Turkiston boshqaruv tizimidan o‘rin olgan Andijon JXQ ning tutgan o‘rni bo‘yicha Mirzo Ahmad – Qushbegiev tomonidan TBMQ ga 1917 yil 30 iyunda quyidagilarni izhor qilgan: “Jamoatchilik xavfsizligi Andijon qo‘mitasi o‘z faoliyatining dastlabki qadamlaridanoq musulmon aholisi va musulmon deputatlari sho‘rosiga nodo‘stona munosabatda bo‘lib, musulmonlarni, ularning tashkilotlarini nazar-pisand qilmay, musulmonlarga ochiqdan-ochiq qarshi borib, ularni siyosiy g‘o‘rlik va hatto, eski tuzumga tarafdorlikda aybladi. Qo‘mitaning bunday tuhmatona chiqishlari, shuningdek, musulmon deputatlari sho‘rosining faol arboblarini qamoqqa olishi musulmon aholisi tomonidan ular ustidan, to‘laqonli fuqaro sifatida – ularning huquqlari ustidan qo‘pol zo‘ravonlik xatti-harakati sifatida (ta’kid bizniki – Z.A.) tushunildi” deb, JXQ ning noqonuniy faoliyati bo‘yicha ma’lumot bergan [5].

Turkiston boshqaruv tizimidagi boshboshdoqlik, har qanday tartib-qoidalarni chetlab o‘tish jarayoni TBMQ ning JXQ tomonidan amalga oshirilayotgani bo‘yicha, xususan, “... musulmon a’zolarini mutanosib ravishda hokimiyatga qo‘ymaslik dushmanchilik munosabatini yaratdi... Tintuvlar, tergovsiz sud va muayyan bir aybnomalar qo‘ymasdan qamoqqa olishlar, turarjoy erkinligining buzilishi – bularning hammasi Inqilob, erishilgan erkinliklarni saqlab qolish nomidan qilinmoqda! Butkul qarama-qarshi tushunchalarni qanday bayon qilish mumkin, shiorlar bilan dalillar o‘rtasidagi ziddiyatlarni qanday tushuntirsa bo‘ladi? Kelajakdagi huquqlar nomidan ochiqdan-ochiq qonunsizlik yuz bermoqda” deyiladi [5].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Turkiston boshqaruv tizimida joylarda, Muvaqqat hukumatni qo‘llab-quvvatlash, TBMQ faoliyati bo‘yicha joylarda tartib-qoidalarni saqlash maqsadida JXQ tuzilgan. O‘lka boshqaruv tizimi tarkibidagi JXQ ijro organi bo‘lib, amalda o‘z demokratik kuchlarni birlashtirish, keng miqyosdagi ijtimoiy, siyosiy va milliy, iqtisodiy masalalarga, joylarda tartib-intizom, jamoat xavfsizligini himoya qilish, Muvaqqat hukumat tomonidan qabul qilingan barcha normativ-huquqiy hujjatlarni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmalariga olishga da’vogarlik qildilar. Ammo shunisi borki, JXQ larni o‘z faoliyatlari doirasida qonun-qoida, tartib-intizom, jamoat xavfsizligi yo‘lida “sa’y-harakat qilishga” qaratilgan bo‘lsa-da, bu amaliyotda hech bir normativ-huquqiy hujjatlarga tayanmagan holda, shaxsiy manfaatlarini ustun qo‘yib, zo‘ravonlik asosida ish olib bordilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev Z. G. Nature and society: relation and interrelation //Экономика и социум. – 2019. – №. 4 (59). – С. 3-5.

2. Abdullayev Z. Turkistonda mol-mulk musodarasi va rekvizisiya //Scientific journal of the Fergana State University. – 2022. – №.

1. – C. 30-30.

3. Yuldashev, J. A. "CONTENT OF DEVELOPMENT OF AXIOLOGICAL POSITION IN FUTURE TEACHERS IN THE PROCESS OF HISTORY EDUCATION." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 4.06 (2023): 82-88.

4. Абдуллаев Р. Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918 годы. Ташкент: “Adabiyot uchqunlari”? 2016. –С. 77.

5. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти. Тошкент: “Маънавият”, 2000. –Б. 45-46.

6. Победа советской власти в Средней Азии и Казахстане. Ташкент: “ФАН”, 1967. –С.169.

7. Рудницкая Д.М. Из истории строительства советов в Туркестане. Ташкент: “Наука”, 1964. –С. 29-30.

8. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Ташкент: “Шарк”., 2000. –С. 20-21.

9. Фарғона вилоят давлат архиви, 121-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 43-варақ.

10. Фарғона вилоят давлат архиви, 121-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 43-варақ орқаси, 44-варақ.

11. Фарғона вилоят давлат архиви, 121-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 47-варақ.

12. Фарғона вилоят давлат архиви, 121-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 53-54 варақлар.

13. Фарғона вилоят давлат архиви, 121-фонд, 1-рўйхат, 14-иш, 61-варақ ва орқаси, 65 варақ ва орқаси.

14. Юлдашев, Джавохир. "Талабаларда тарихий онг ва аксиологик дунёқарашни ривожлантиришнинг ўзаро алоқадорлиги." Общество и инновации 2.3/S (2021): 53-58.

15. Юлдашев, Джавохир. "Взаимосвязь развития исторического сознания и аксиологического мировоззрения в восприятии студентов." Общество и инновации 2.3/S (2021): 53-58.